O’zbekistonda vodorod energetikasi rivojlantiriladi

Joriy yil 9-aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.

Unga ko’ra:

- Fanlar akademiyasi “Xalqaro quyosh energiyasi instituti” MChJ negizida Energetika vazirligi huzurida Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti;

- Institut tuzilmasida Vodorod energetikasi ilmiy-tadqiqot markazi hamda Qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi texnologiyalarini sinash va sertifikatlash laboratoriyasi tashkil etiladi.

Institut davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi.

2021-yilda Institut faoliyatini tashkil etish uchun 50 mlrd so’mgacha mablag’ ajratiladi.

Institutning ilmiy va ilmiy-texnik xodimlari rivojlangan xorijiy davlatlardagi yetakchi ilmiy markazlarda ilmiy stajirovkadan o’tadi.

2024/2025 o’quv yilidan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida “Vodorod energetikasi va texnologiyalari” magistratura mutaxassisligi bo’yicha kadrlar tayyorlash yo’lga qo’yiladi.

Shuningdek, qarorga ko’ra, mamlakatda vodorod energetikasining rivojlanishi holati bo’yicha yillik hisobot tayyorlash va “InnoWeek.uz” innovatsion g’oyalar haftaligi doirasida uning taqdimotini o’tkazish amaliyoti joriy etiladi.

Institutning moddiy-texnik bazasini shakllantirish va mustahkamlash uchun zarur bo’lgan olib kirilayotgan uskunalar, texnologik qurilmalar va jihozlar, moddiy-texnika vositalari, dasturiy ta’minot va xizmatlar bojxona bojlaridan ozod qilinadi.

Mazkur qarorning qabul qilinishi mamlakatimizda vodorod energetikasini rivojlantirishdagi muhim qadamlardan biri bo’ldi.